

HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA UYUSHIQ BO‘LAKLARNING FUNKSIONAL – USLUBIY QO‘LLANISHI HAQIDA

Doniyor Tojiboyev
mustaqil tadqiqotchisi
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Maqolada jadid adibi Hoji Muin publitsistik maqolalarida qo‘llangan uyushiq bo‘laklarning uslubiy imkoniyatlari o‘rganilgan. Mazkur bo‘laklar vositasida denotativ va konnotativ ma’nolarning ifodalanishi, ularning semantik-stilistik xususiyatlari, maqolalar tilida ekspressivlikning hosil qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sintaktik-stilistik vosita, so‘z qo‘shilmasi, tobe bog‘lanish, graduonimiya, lisoniy graduonimik qator, gradatsiya, gradual o‘sish qatori.*

Abstract. The article examines the stylistic possibilities of homogeneous parts used in the journalistic articles of the Jadid writer Haji Muin. The expression of denotative and connotative meanings through these parts, their semantic-stylistic features, and the importance of creating expressiveness in the language of articles are highlighted.

Keywords: *syntactic-stylistic means, word combination, subordinate connection, graduonymy, linguistic graduonymic series, gradation, gradual growth series.*

Hoji Muin publitsistik maqolalari matnidagi sintaktik-stilistik vositalardan biri bir semantik guruhga mansub gap bo‘laklarini uyushiq holida birin-ketin keltirib qo‘llashdir. Bu usul aytilmoqchi bo‘lgan fikrni mazmunan kuchaytirishga, uning realligini takror-takror ta’kidlash va tasdiqlashga xizmat qilgan. Masalan, “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 19-sentyabrdagi sonida e’lon qilingan “Sho‘royi islomiya va saylov” nomli maqolada sodda va murakkab kesimning uyushiq holda keltirilishida bu holat yaqqol namoyon bo‘lgan: “*Sho‘roi islom”ning xalq orasig‘a solg‘on fitnasi saylov kuni natija berdi, bechora zahmatkashlar va ularning*

tarafdorlaridan bir necha kishilar saylov uchastka (qit'a)larida sho'rochilar tarafidan **uruldilar, so'kuldilar, talandilar**” [1;160]; “Shunday bo'lsa ham, **“Zahmatkashlar jamiyati” ma'yus bo'lmadi, tek turmadi, harakat qildi, o'zini mudofaa etdi**” [1;69].

Maqolalar matnida yonma-yon, orqama-ketin keltirilgan teng bog'lanishli so'z qo'shilmasi, tobe bog'lanishli so'z birikmasi shaklidagi uyushiq bo'laklar esa fikrning kuchayib, ta'kidlanib borishiga, ta'sir kuchining oshishiga xizmat qilgan: **“Alarning bu hollarini ko'rub, dard va hasratim zo'rayadur, burung'i shavkatim va qudratim, imorat va madaniyim esimg'a kela boshlaydur** [1;79]; **“Ay turkistonli turk o'g'lonlarim! Endi turingiz! O'zingizni asorat kishanidan, yoqangizni jaholat changalidan, yurtingizni dushmanlar tirnog'idan ajratib olmasangiz, buyuk qiyomatda sizlarga tamug' yerindan boshqa yurt berilmas...** [1;79].

Bundan tashqari, birikmali holdagi uyushiq bo'laklarning bir matnda o'zaro qiyoslash-chog'ishtirish asosida ketma-ket keltirilishi muallif emotiv hissiyoti va ehtirosining natijasi sifatida publitsistik uslub tilida bo'yoqdorlik, tasviriylilik, va obrazlilikni namoyon qilgan. Bu holat uyushiq bo'lak holida kelgan quyidagi sintaktik birliklarda o'zining yorqin ifodasini topgan: 1) **“Qiyomat yaqinlashg'onda boylardan xayriyat, kambag'allardan sabriyat, dehqonlardan barakot ko'tariladur”**; 2) **“jadidlar nomozdan, qadimlar maorifdan, hukumatlar adolatdan qochadur”**; 3) **“maorif idoralaridan oqcha, maktablardan o'quvchi, muallimlardan ta'lim qochadur”**; 4) **“oxir zamonda amalsiz olimlar, hamiyatsiz boylar, she'riyatsiz shoirlar, savodsiz muharrirlar, obunasiz gazetalar, xurufsiz matbaalar, tartibsiz murattiblar, doirasiz idoralar, dorusiz tabiblar, hikmatsiz hakimlar, ishonchsiz eshonlar, ixlossiz muridlar ko'payadur”** [1;160].

Mazkur parcha “Zarafshon” gazetasining 1923-yil 11-fevraldagi sonida e'lon qilingan “Oxir zamon alomatleri” nomli maqoladan olingan. Keltirilgan gaplar bir matn tarkibida mantiqiy izchillikda berilgan. Fikr mazmunida esa jamiyat hayotidagi

ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy sohadagi illatlarning davom etishi majoziy ma'noda “oxir zamon”ga o'xshatilgan va mana shu “oxir zamon”ga xos sifatlar to'rtta gap tarkibidagi ketma-ket kelgan uyushuq bo'laklar vositasida tasvirlangan. Ajratib ko'rsatilgan uyushuq bo'laklarning barchasi ohang yordamida bo'g'langan bo'lsa-da, birikmali holdagi bu bo'laklarning grammatik strukturasi har xil va o'ziga xos uslubiy qo'llanish hosil qilgan:

– birinchi gapda to'ldirilmish bo'lak – *ko'tariladur* leksemasi bo'lib, gapda kesim vazifasida yakka holda kelgan; uyushgan to'ldiruvchilar – *boylardan, kambag'allardan, dehqonlardan* leksemalari; *xayriyat, sabriyat, barakot* leksemalari esa uyushgan egalar hisoblanadi. Demak, gap tarkibidagi sintaktik bo'laklar: avval *to'ldiruvchi*, keyin *ega* uyushuq qator bilan ifodalangan. Uyushuq qator hosil etgan har uchta a'zo bir butun holda bitta sintaktik bo'lak vazifasida kelgan va markaziy birlik – *kesim* sostavga bo'g'langan;

– ikkinchi gapda ham xuddi shu sintaktik bo'laklar uyushgan qatorni hosil qilgan. Boroq bunda *ega* sostav – *jadidlar, qadimlar, hukumatlar* birinchi, keyin esa makon kelishigida shakllangan uyushuq to'ldiruvchilar – *nomozdan, maorifdan, adolatdan* kelgan, har ikki uyushgan qator markaziy birlik – *kesim* sostavga bo'g'langan;

– uchinchi gapda uyushuq qator xuddi birinchi gapdagi kabi shaklda qo'llangan, faqat uyushuq qatordagi birinchi komponent – *maorif idoralaridan* birikmali holda kelgan. Demak, uchinchi gapda leksemashakl va birikmashakl asosida aralash holda uyushuq qator hosil qilingan;

– to'rtinchi gapda esa *ega* emaslik ma'nosini ifodalovchi *-siz* grammatik shakl orqali yasalgan sifat leksema bilan ifodalangan o'n ikkita sifatlovchi-aniqlovchi (*amalsiz, hamiyatsiz, she'riyatsiz, savodsiz, obunasiz, xurufsiz, tartibsiz, doirasiz, dorusiz, hikmatsiz, ishonchsiz, ixlossiz*) ko'plik shaklda sifatlanmish bo'lib kelgan, aniq va mavhum tushuncha ifodalovchi (*olimlar, boylar, shoirlar, muharrirlar,*

gazetalar, matbaalar, murattiblar, idoralar, tabiblar, hakimlar, eshonlar, muridlar) ot leksemashakl bilan ifodalangan o'n ikkita ega sostavga bog'langan. Demak, bu misolda birdan ortiq *sifatlovchi* va *sifatlanmish* gapda bir xil sintaktik mavqe va uyushtiruvchi ohangga, grammatik shaklga ega bo'lgan uyushgan tenglanish qatorini hosil qilgan.

O'zbek tilida, odatda, gap bo'laklari, asosiy informatsiyadan tashqari, yordamchi ma'lumot ham ifodalaydi. Shu asosda sintaktik birlik sifatida gapning ko'p komponentlari ham logik-grammatik jihatdan qo'shimcha ma'no ifodalash xarakterida bo'ladi. Uyushiq bo'laklarni turli formada qo'llanishi ham gapdagi yordamchi ma'lumotni ifodalashga xizmat qiladi. Yuqoridagi birinchi, ikkinchi, uchinchi misollarda bir matnda uyushiq qatorlarning inversiya asosidagi *to'ldiruvchi* – *ega*; *ega* – *to'ldiruvchi* shaklida; *sifatlovchi* – *sifatlanmish* shaklida; *leksemashakl* va *birikmashakl* asosida aralash holda qo'llanishi publitsistik uslubda predmet, hodisa, belgini har tomonlama xarakterlashga, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. To'rtinchi misolda tasviriy vosita sifatida uyushiq bo'laklarning o'ndan ziyod holda keltirilishi bilan umumiy tasvirning alohida belgilari, harakat dinamikasi tasvirlangan, kuchli ekspressivlik ifoda qiluvchi *sifatlovchi-sifatlanmish* qatori hosil qilingan va natijada publitsistik nutq ohangdorligi ta'minlangan.

Uyushgan holda qatorlashtirib berilgan leksemalar ba'zi hollarda qarama-qarshi, zid ma'noli, grammatik jihatdan juft so'zlardan iborat bo'lib, ular matn mazmunining emotsional-ekspressiv xususiyatini, ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Quyidagi misollarda bu holatni ko'rish mumkin: *“Bizning yurtimizda to'g'ri-egri, haq-nohaq, tabiiy-g'ayritabiiy ishlar qancha ko'b bo'lsa, xalqning foydasini ko'zlab ular ustindan matbuotda chiqish etishga har bir kishi haqlidur”* [1;162]; *“Mag'lub-g'olib, boy-qashshoq, obod-xarob, ishchan-dangasa, nodon-dono xalq, tabiiy, har o'lka va har millatda bor”* [1;73].

Adib publitsistikasida uyushiq bo‘laklarning o‘ziga xos qo‘llanishidagi yana bir jihat uyushtirish usulining ba’zi hollarda gapda ifodalanayotgan ma’noning darajalanib, kuchayib borishiga, ya’ni graduonimiyaga xizmat qilganligidir. Uyushgan bo‘laklardagi bunday darajalanishning ayrimlariga leksik birliklar ifodalagan semantik ma’nolardagi sifat belgilarining o‘sib borish munosabati asosidagi lisoniy hodisa deb qarash mumkin mumkin: *“Tuxumiga qiron kelgur boylar ham yo‘q bo‘lmadilar, balki **birlari ming, minglari milion, millionlari milliardlardg‘a** yetib, Qorundek mullalarning hisobini bilmayturg‘on bo‘ldim”* [1;152]; *“Bu oy masorif oyi emas, maorif oyidur. Bu so‘z-qaror oyi emas, **tushuncha - muhokama - hukm qilmoq** oyidur”* [1;165]; *“Bizlar bilan madaniy millatlar orasinda ko‘ngulni achitaturg‘on bir ayirma shulki, yurtimizda **faqir - kambag‘al - o‘rta hol - boy - badavlat insonlar** ko‘p”* [2;9].

“O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati”da *ming – milion – milliard* leksemalari miqdorning oshib borishiga ko‘ra [2;12]; *tushuncha – muhokama – hukm qilmoq* leksemalari fikrlash bosqichiga ko‘ra [2;25]; *faqir – kambag‘al – o‘rta hol – boy – badavlat* leksemalari esa moddiy ta‘minotning yaxshi-yomonligiga ko‘ra [2;19] lug‘aviy darajalanishni hosil qilishi qayd etilgan. Bunda uyushiq qatordagi leksemalar graduonimik paradigma a‘zolari sifatida odatdagi til qonuniyati asosida turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish xususiyatlarini namoyon qilgan. Demak, publitsistik matnda uyushiq bo‘lak uzvlarining lisoniy graduonimik qator a‘zolari sifatida voqelantirilishi matnda voqea-hodisaning tavsifi jarayonida aytilmoqchi bo‘lgan fikrning reallashishini ta‘minlashga xizmat qilgan. Bu bilan o‘quvchiga mavjud fikrni asosli, to‘liq tarzda yetkazilishiga erishilgan.

Maqolalar matnida nutqiy hodisa sifatida uyushiq bo‘laklarning matnning umumiy mazmunidagi ta’sirchanlikning gradual o‘sishi asosida voqelantirilgan o‘rinlar ham mavjud. Hoji Muin publitsistikasida uyushiq bo‘laklar orqali

ma'noning darajalanib, oshib, kuchayib boruvchi ottenkaga ega bo'lishi ta'minlangan. Uyushiq bo'laklar orqali maqolalar tilining ekspressiv imkoniyati oshirilgan va buning natijasida yuzaga kelgan *gradatsiya* hodisasining quyidagi tiplarini keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz:

1. Uyushiq bo'laklar orqali kasb-kor, hunar nomlarining nutqiy darajalanishi:

olima > shoira > xatiba > faqiha:

*“Ul asrlarda islom dunyosinda erlar qatorinda xotunlardan ham **olima, shoira, xatiba va hatto faqihalar** ham yetishib chiqqan” [1;85].*

2. Uyushiq bo'laklarda insonlarga xos salbiy xulq-atvor ifodalovchi leksemalarning nutqiy darajalanishi:

fitnachi > ig'vogar > nomussiz > kissaparast:

*“Yuqorida ham aytdikkim, hukumat ishlarinda aralashib yurg'on ba'zi **fitnachi, ig'vogar, nomussiz, va kissaparast** kishilarni biz hamma vaqt tanqid va hajv qilib kelmakdamiz” [1;94].*

3. Mavhum tushuncha ifodalovchi ot leksemalarning uyushiq bo'laklar orqali nutqiy darajalanishi:

bo'hton > hibs > o'lim:

*“To'g'riliq yo'linda **bo'hton, hibs, hatto, o'limdan** ham qo'rqmaymiz. Tog'riliq va muqaddas maslakimiz yo'linda qurbon bo'lmoqni o'zimiz uchun sharaf deb bilamiz” [1;95].*

4. Uyushiq bo'laklarda makon, o'rin-joy otlarining nutqiy darajalanishi:

maktab > madrasa > dorulsano'a:

*“Zamoncha ehtiyojimizga yarayturg'on **maktab, madrasa, dorulsano'alarimiz** ila zamoniy ilm va fanlarni bilaturg'on muallimlarimiz yo'q” [1;63].*

5. Uyushiq bo'laklarda shaxsni ilm-ma'rifat va ijtimoiy-diniy jihatdan tavsiflash ma'nosining darajalanishi:

qozi > mudarris > imom > mallim:

*“O‘g‘il bollar esa, o‘qib chiqq‘ondan so‘ng **qozi, mudarris, imom, loaqal muallim bo‘larlar**” [1;83].*

6. Uyushiq bo‘laklarda harakat-holat ifodalovchi ish-harakat leksemalarining nutqiy darajalanishi:

talashib > yoqalashib > xorib > kuchsizlanib:

*“Manim baxtsiz avlodim bir-birlari bilan nifoq va adovat ila **talashib, yoqalashib, xorib, oxiri kuchsizlanib jaholat to‘shaginda hanuz uxlamogda**” (1;83).*

7. Uyushiq bo‘laklarda shaxs holatini ifodalash ma‘nosining nutqiy darajalanishi:

ochlik > yalong‘ochlik > baxtsizlik > tolesizlik:

*“Oqibat, o‘ylab topdimki, bu to‘g‘rida ayb o‘zimda ekan, muncha **ochlik, yalong‘ochlik, bu qadar baxtsizlik va tolesizligimg‘a o‘zim sabab bo‘lg‘on ekanman**” [1;153].*

8. Bir so‘zning takrori asosidagi uyushiq bo‘lakda ma‘noning darajalanishi:

*“Bu yil yomg‘ursizlikdan ekinlarning barakasi uchib, o‘lkamiz **qimmatchilik ustida qimmatchilikka duchor bo‘ldi** [1;73].*

9. Birikmali holda ifodalangan uyushiq bo‘laklarda narsa-predmet, voqea-hodisaning nutqiy darajalanishi:

*“Demak, bu oy **masorif oyi emas, maorif oyidur, so‘z-qaror oyi emas, ishlash- tirishish oyidur**” [1;165].*

Kuzatganimizdek, uyushiq bo‘laklardagi nutqiy darajalanish nafaqat lesemalararo munosabatlarda, balki matndagi so‘z birikmasi va gaplarning ma‘no-mazmuni asosida ham voqelangan. Uyushiq bo‘laklarning nutqiy darajalanish hosil qilishi matnda ifodalanayotgan fikrdagi ta‘sirchanlikning gradual o‘shish holatini namoyon qilgan, bunda matning umumiy mazmunidagi ta‘sirchanlik gradual o‘shish



holatini o'zida aks ettirib, maqolalar tilining ekspressiv imkoniyatini oshirishga xizmat qilgan. Aytish mumkinki, adib uyushiq bo'laklarni gradual o'sish qatori asosida mahorat bilan qo'llash orqali fikrni sodda, tushunarli va aniq ifodalash imkonini yaratgan. Tahlilga tortilgan uyushiq bo'laklar pragmatik omillar ta'sirida o'z mohiyatidan tashqariga chiqmagan holda maqolalar matnida o'ziga xos uslubiy vazifa bajara olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 256 б.
2. Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 39 b.
3. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 112.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.159.